

URGUT TUMANIDAGI SUG‘ORILADIGAN YER MAYDONLARINING MELIORATIV HOLATI

Annotatsiya. Maqolada Urgut tumani tabiiy sharoiti, ichki suvlari, sug‘oriladigan yerlarni meliorativ holati, meliorativ holatini sifat ko‘rsatkichlariga ko‘ra guruhlarga ajratilgan. Gurunt va ariq suvlarining minerallashuv ko‘rsatkichlari aniqlandi. Urgut tumani sug‘oriladigan yer maydoni va uning yillar kesimidagi o‘zgarib borishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sug‘oriladiga yer, minerallashuv, meliorativ holat, melioartiv ko‘rsatkichlar, gurunt suv, ariq suvi.

МЕЛИОРАТИВНОЕ СОСТОЯНИЕ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ УРГУТСКОГО РАЙОНА

Абстракт. В статье Ургутский район разделен на группы по качественным показателям природных условий, внутренних вод, мелиорации орошаемых земель, мелиорации земель. Определены показатели минерализации почвы и речной воды. Освещена площадь орошаемых земель в Ургутском районе и ее изменения с годами.

Ключевые слова: орошаемые земли, минерализация, мелиоративное состояние, мелиоартивные показатели, грунтовые воды, канавные воды.

MELIORATIVE CONDITION OF IRRIGATED LAND AREAS IN URGUT DISTRICT

Abstract. In the article, Urgut district is divided into groups according to the quality indicators of natural conditions, internal waters, land reclamation of irrigated lands, land reclamation. The indicators of mineralization of soil and stream water were determined. The irrigated land area of Urgut district and its changes over the years are highlighted.

Key words: Irrigated land, mineralization, reclamation condition, melioartive indicators, ground water, ditch water.

Kirish. So‘ngi paytlarda mamlakatimizda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash masalasida bir qancha qarorlar va farmonlar imzolangan. Shulardan, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 28 noyabrdagi qarori imzolangan. Bu qarorda yer reesurslaridan oqilona foydalanish masalasi qo‘yilgan.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati deyilganda yer maydonlarini qishloq xo‘jaligida bevosita foydalanishga yaroqliligi nuqtai nazaridan baholash. Meliorativ holati qoniqarli yerlarga tuproq unumdorligini tubdan yaxshilash talab qilinmaydigan, dehqonchilik qilishga monelik qiladigan nuqsonlari bo‘lmagan yerlar kiradi [1,2].

Tadqiqod obekti bo‘lgan Urgut tumani Samarqand viloyatining janubiy-sharqiy qismida joylashgan hudud hisoblanadi. Tuman 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan. Shimoliy-sharqda Zarafshon daryosi orqali Bulung‘ur tumani, shimolda Toyloq, shimoliy-g‘arbda va g‘arbda Samarqand tumanlari, sharqda Tojikiston Respublikasi, janubda Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 1120,3 km². Aholisi 559,2 ming kishi (2023). Viloyat aholisini 13.1% ni tashkil qiladi [7].

Tumanni asosiy suv manbalariga Zarafshon daryosi, Oqqo‘rg‘on, G‘ijduvonsoy, G‘ussoy, Urgutsoy, Kamongaronsoy, Qoratepasoy, shuningdek, Darg‘om, Yangiariq, Yangi Urgut, Yangi Qozonariq va boshqa kanallar suv bilan ta‘minlaydi. Shuning uchun tuman hududida sug‘oriladigan maydonlar ko‘p. Urgut tumanida 2021 yi holatiga ko‘ra 30,447 ming ga sug‘oriladigan maydon bor.

1-jadval

Samarqand viloyatida sug‘oriladigan yer maydonlari ming ga hisobida			
Tumanlar nomi	2011	2015	2021
Bulung‘ur	29,86	29,859	29,859
Jomboy	31,66	31,600	31,599
Ishtixon	31,51	31,503	31,503
Kattaqurg‘on	34,6	34,606	34,860

Narpay	27,49	27,493	27,444
Nurobod	6,97	6,961	7,395
Oqdaryo	27,49	28,657	28,919
Pastdarg'om	53,99	53,896	40,817
Paxtachi	23,72	23,720	53,855
Payariq	40,82	40,894	23,708
Samarqand	16,97	15,454	15,413
Tayloq	16,28	16,284	16,284
Urgut	30,32	30,306	30,447
Qo'shrabot	5,75	5,745	5,745
Shaxarlar	1,74	2,694	2,694
JAMI:	379,16	379,67	380,542

Yuqoridagi jadvalga qarasak tuman sug'oriladigan yer maydonlari 2011 yil holatiga bo'yicha tuman Pasdarg'om, Payariq, Jomboy, Ishtixon va kattaqo'rg'ondan keyingi o'rinda turgan. Shu yil holatiga ko'ra tumanda 30,32 ming ga sug'oriladigan yer maydoni bo'lgan. 2021 yilgi holatga ko'ra bu ko'rsatkich ozgina o'sgan bo'lib 30,447 ming ga ni tashkil qilgan.

Bilamizki, hozirgi paytda respublikamizdagi mavjud 4304,5ming gektar sug'oriladigan maydonlarning 15,7foizida, yoki 622954 gektarida yer osti sizot suvlari satxi o'tkan yilning dekabr oyida 2,0 metrgacha bo'lgan chuqurlikda joylashgan. Ko'rinib turganidek Respublikamizdagi sug'orma dehqonchilik qilinadigan 622954 ming gektar maydonda aynan sizot suvlari sathi yuqorida joylashganligi sababli meliorativ holati yomon hisoblanadi va bu maydonlarda qishloq xo'jaligi ekinlaridan olinadigan hosildorlikning o'rtacha 20-35 foizi yo'qotiladi [3].

Tuman hududi sug'oriladigan yerlarning minerallashish holati ham yillar miqyosida o'zgarib borgan. Bunga asosiy sabalar qishloq xo'jaligida yerlardan tartibsiz foydalanish masalasi, aholi ko'payishi bilan sug'oriladigan yerlarda uy-joy qurilishi bilan ham bevosita bog'liq.

2-jadval

Samarqand viloyatida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati, ming ga hisobida

Tuman nomi	yillar	Sug'oriladigan yerlar ming ga.	Grunt suvlari sathi						Grunt suvlari tarkibining minerallashganligi				Ariq suvlarini minerallashganligi		
			0-1,0 m.ga	1,0-1,5 m	1,5-2,0 m	2,0-3,0 m	3,0-5 m	5,0 m va undan chuqur	1,0 g/l	1,0-3,0 g/l	3,0-5,0 g/l	5,0 g/l dan ko'p	1,0 g/l	1,0-3,0 g/l	3,0-5,0 g/l
Urgut	2011	30,32			0,02	0,85	5,82	23,63	30,32				30,32		
	2015	30,306	0,04	0,14	0,32	4,98	7,51	17,31	30,31				30,31		
	2020	30,406	0,047	0,128	0,260	2,364	4,980	22,627	30,406				30,41		

Mazkur jadvalga qarasak tadqiqod uchun ajratib olingan yillardagi holat bo'yicha gurunt suvlarning sathi yillar kesimida har hil uchraganligini ko'rishimiz mumkin. 2011 yilda 0-1,0 metrgacha har gektar hisobida gurunt suv sathi uchramagan. 2015-2020 yillardagi holatida esa gurunt suvi uchraganligini ko'rishimiz mumkin. Gurunt suvlari tarkibining minerallashganligi holati 2011 yilda 3032 har 1,0g/l bo'lsa 2015 yilda 30,31 va 2020 yilgi holatida esa mazkur ko'rsatkich 30,406 ni har 1,0g/l da ko'rishimiz mumkin. Ariq suvlarining minerallashish holati ham gurunt suvlariniki bilan deyarli bir hil uchraydi.

Tuman sug'oriladigan yer maydonlarini holati ha hamma hududda bir hil emas. Hamda, yerlarning meliorativ holatiga qarab yahshi, qoniqarli va qoniqarsiz sinflarga ham ajratish mumkin.

3-jadval

Samarqand viloyatida sug'oriladigan yerlarning meliorativ xolatiga qarab bulinishi, ming ga hisobida

Tuman nomi	Yillar	Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda sug'oriladigan umumiy maydon ming ga.	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ xolatiga qarab bo'linishi ming ga.				
			Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	Shu jumladan	
						Tuproq suvining yaqinligi	Tuproq sho'rlan ganligi
Urgut	2011	30,32	29,45	0,87			-
	2015	30,306	20,19	9,93	0,18	0,18	-
	2020	30,406	27,61	2,62	0,18	0,18	-

3-jadvalda sug'oriladigan yer maydonlarining meliorativ holati sifat ko'rsatkichlariga e'tibor bersak, 2011 yilda 29,45 ming ga yer yahshi va 0,87 ming ga yer qoniqarli bo'lgan. 2015 yilga 20,19 ming ga yer sifat ko'rsatkichi yahshi bo'lgan. Va bu ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 9 ming ga yer holati qoniqarli holatga tushgan. 2020 yilda esa bu ko'rsatkich yana ko'tarilgan va 27,61 ming ga ni tashkil qilgan. Meliorativ holati qoniqarsiz deb hisoblangan yer maydonlari 2015 va 2020 yillarda deyarli bir hil 0,18 ming ga ni tashkil qilgan.

Xulosa. Urgut tumani geografik nuqtayi nazaridan tog'li, tog'oldi va tekislik hududida joylashgan. Tuman hududida oqar suvlar ko'p. Tadqiqot natijasida tumanning sug'oriladigan yer maydonlarining minerallashuvi va meliorativ holati o'rganildi. Bunda yer osti va yer usti suvlari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar e'tiborga olindi. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati va minerallashuvi tyillar kesimida taqqoslandi va ular o'rtasidagi tafovutlar aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizovich N. J., Muxamajanovich S. S., Amanovich U. E. The territorial features of effective use of water resources (as Zarafshan basin) //European science review. – 2016. – №. 1-2. – С. 8-10.
2. Allaberdiev R. et al. Study of plant adaptation to the arid zone of Uzbekistan based on system analysis. – 2021.
3. Maxmudovna R. M. et al. SUG 'ORILADIGAN MAYDONLARNING MELIORATIV HOLATIGA BOSIMLI SIZOT SUVLARINING TA'SIRI //Journal of new century innovations. – 2023. – T. 26. – №. 2. – С. 78-83.
4. Mirzaliyev S. R., Karimov Y. T., Juraxujayev D. D. URGUT TUMANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-2 (108). – С. 222-225.
5. Хайитов Ю. К., Джурахужаев Д. Д. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ АНТРОПОГЕННЫХ ЛАНДШАФТОВ //Экономика и социум. – 2024. – №. 4-1 (119). – С. 1157-1161.
6. Хикматов Ф. Х., Юнусов Г. Х., Зияев Р. Р. АТЛАС ПОВЕРХНОСТНЫХ ВОД УЗБЕКИСТАНА И МОНИТОРИНГ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ //ББК 26 Р 31. – 2014. – С. 335.

7. Xurramova N. X., Mirzaliyev S. R., Juraxujayev D. D. O‘RTA ZARAFSHON HAVZASI LANDSHAFTLARIGA ANTROPOGEN TA’SIR VA HAVZA LANDSHAFTLARINING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 544-547.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yerlarning_meliorativ_holati#Manbalar